IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

AZONNING JORIY BO'LISH TARIXI

Boboyorov Javoxir Jasurovich

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada azon, uning joriy etilish tarixi va oyatlar hukumlari , mazmuni borasidagi oyat va hadis ta'lif etilgan.

Kalit so'zlar

Hadis, oyat, sunnat, shior.

Azon Islom tarixida namozning boshlanishini xabar qilish uchun joriy etilgan amal bo'lib, uning o'ziga xos tarixi mavjud. Bu borada Qur'on oyatlari va bir necha hadislar talqin etilgan. Jumladan, Qur'oni Karimda "Ey iymon keltirganlar! Juma kuni namozga nido qilinganda, Allohning zikriga shoshiling" (Juma surasi 9-oyat)

Shu bilan birga , Qur'onning "Namozga chaqirganda (azon aytilganda) Allohga yuguring" oyati hamda Payg'ambar Muhammad sallollohu alayhi vassallam "Azonni eshitganingizda unga javob qaytaringlar" degan hadislari misol bo'ladi. Azon hikmati borasida uning toatiga, ibodatiga, hidoyatiga, Uning dargohi oliyasiga bir chorlovdir.

"Azon" So'zi arab tilida -"chaqirmoq" "undamoq" "bildirmoq" degan ma'noni anglatadi. Islom shariatida esa farz namozining vaqtini maxsus chorlov bilan bildirishga "azon" deyiladi. U payg'ambar Muhammad sallollohu alayhi vassallam sunnatlari va Qur'on oyatlari vositasida joriy etilgan. Shu bilan azon musulmonlarning shiorlaridan biriga aylandi. Uning amalda joriy etilish tarixiga kelsak, Rasulullоh sallollohu alayhi vassallam va sahobalar Makkai Mukarramadan hijrat qilib Madinai Munavvaraga o'rnashgan vaqtda sahobalar namoz vaqtidan oldin borib jamoat bilan namoz o'qishni kutib o'tirishar edi. U vaqtda barcha musulmonlar namozga biror belgi bilan chaqirilmas edi, shunda musulmonlar namoz boshlanishini bildirish belgisi bo'lishini xohlashardi. Rasulullоh sallollohu alayhi vassallam shu masala borasida odamlarni to'pladilar va ular bilan maslahat qildilar . Sahobalar bu borada har xil fikr bildirishdi.

Jumladan, kimdir gulxan yoqish yana kimdir nasroniylarni zangini chalish va majusiylar dudini chalish yana kimdir balandroq joyga bayroq ko'tarish takliflarini bildirishdi. Biroq, Rasulullоh bularga rozi bo'lmadilar. Zang nasroniylarga xos, dud majusiylarga xos ekanligini aytdilar. Shunda Umar ibn Hattob "namoz vaqti bo'lganda bir odam mahallama-mahalla aylanib "assolatu jomiatun" (namoz vaqti bo'ldi) deb elon qilsin" dedilar. Rasulullohga u kishining ushbu maslahati ma'qul kelib bu vazifani Bilol roziyallohu anhuga topshirdi. Ammo nimadur sababli bu ishga amal qilinmadi. Natijada, bu masala javobsiz qoldi. Lekin bir kuni Umar roziyallohu anhu azon borasida tush ko'rdilar. Ammo negadir buni Rasulullоh sallollohu alayhi vassallamga aytmadilar. Umar roziyallohu anhudan so'ng Abdulloh ibn Zayd Ansoriy ham azon haqida tush ko'rdi. Uyg'onishlari bilanoq Rasulullоh sallollohu alayhi vassallamni oldilariga borib ko'rgan tushini aytib berdilar. Bu hodisa tahajjud vaqtida sodir bo'lgan edi. Rasulullоh bu tushni eshitganlaridan so'ng "Inshaalloh, bu tush rost va Alloh tarafidandir" dedilar. O'sha vaqtda sahobalar masjidda edilar. Ularning ichida

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Umar roziyallohu anhu ham bor edi. Hazrati Abdulloh birinchi bo'lib bu tushni aytganlari uchun Umar roziyallohu anhu tushlarini aytmadilar. Abdulloh mendan bu fazilatni tortib olmoqchi deb o'ylamasin dedilar. Abdulloh roziyallohu anhuning ovozlari past edi va u vaqtda bemor edilar. Shu sababdan bu vazifani Rasulullоh Bilol roziyallohu anhuga topshirdi. Abdullohga azon kalimalarini Bilol Roziyyallohu anhuga aytib turishini buyurdi.

Bomdod vaqti bo'lganida Abdulloh roziyallohu anhu Bilol roziyallohu anhuga azon kalimalarini aytib turdi. Bilol roziyallohu anhu bomdod vaqtida azon aytishni boshladi. Kechaning sokinligi hamda atrof tog'lar bilan o'ralganligi sababli azon ovozi juda chiroyli eshitildi. Azonni uyida turib eshitgan Umar roziyallohu anhuning ham shavqlari jo'shib ketdi. U kishi tezda Rasululoh sallollohu alayhi vassallamni huzurlariga bordi va "Ey Allohning Rasuli, sizni haq din ila yuborgan zotga qasamki, men ham Abdullohning tushiga o'xshash tush ko'rgan edim" dedi.

Rasulullоh sallollohu alayhi vassallam : "Allohga hamdlar bo'lsin. Nima uchun siz Abdulloh roziyallohu anhu tushuni aytgan vaqtda aytmadingiz" dedi. Umar roziyallohu anhu ''Mendan oldin bu fazilatni Abdulloh hosil qildi'' dedilar. Shuning uchun men so'zlagani uyaldim dedilar. O'sha kundan boshlab azon aytiladigan bo'ldi..

Abu Dovud, Ibn Moja va Dorimiy keltirgan rivoyatda Abdulloh ibn Zayd roziyallohu anhu quydagilarni aytdilar:

"Rasulullоh sallollohu alayhi vassallam odamlarni namozga to'plash uchun zang chalishga amr qilganlarida kechasi tush ko'rdim. Oldimga zang ko'targan bir kimsa keldi. Men unga:

– Ey Allohning bandasi, Zangni sotasanmi? - dedim.

– Bu bilan nima qilasan? - dedi u.

– U bilan namozga chaqiramiz - dedim.

– Seni bundan yaxshiroq narsaga dalolat qilaymi? - dedi.

– Xa - dedim.

"Allohu Akbar, Allohu Akbar

Allohu Akbar, Allohu Akbar

Ashhadu allaa ilaaha illalloh

Ashhadu allaa ilaha illalloh

Ashhadu anna Muhammadar - Rosulullоh

Ashhadu anna Muhammadar - Rosulullоh

Hayya alas solah, Hayya alas solah

Hayya alal falah, Hayya alal falah

Allohu Akbar, Allohu Akbar

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Laa ilaaha illalloh” deysan - dedi.’’

Demak, hadisi shariflardan kelib chiqib, azon haqidagi tushni birinchi bo’lib Umar ibn Hattob ko’rganliklarini guvohi bo’lishimiz mumkin. Shunday bo’lsada, Umar ibn Hattob ushbu tushni ko’rganini payg’ambarimizga oshkor qilmaganliklari sababli, undan so’ng yana shu tushni ko’rgan Abdulloh ibn Zayd roziyallohu anhu xabari, payg’ambarimiz hukmi ila azon joriy bo’ldi.

Azonning joriy bo’lishi faqatgina sahobalarning tushi bilan bo’lmagan balki, azon va iqomatning joriy etilishi payg’ambar Muhammad alayhissalomning hukmlari bilan yuzaga kelgan edi.

Shuningdek, Qur'oni Karim ham quyidagi oyatlarda:

“Ey iymon keltirganlar! Juma kuni namozga nido qilinganda, Allohning zikriga shoshiling” (Juma surasi 9-oyat) va

“Agar namozga nido qilinsangiz, uni ermak va o’yin qilishadi” (Moida surasi 58-oyat) deyiladi.

Ushbu ikki oyatdagi “nido” dan murod azon ekani ochiq oydin ko’rinib turibdi. Demak, azon hukmi Qur’oni Karimda zikr qilingan .

Yuqorida zikr etilgan hadisdagi matn payg’ambarimiz davirlaridan buyon o’zgarishsiz yetib kelmoqda..

Demak, azon sahobalarning tushi orqali payg’ambarimizga bildirilgan, musulmonlarni ibodatga chorlovchi o’ziga xos bir chaqiriq hisoblanadi. Azon musulmonlarni birlashtiruvchi, ularni e'tiborni bir joyga qaratuvchi muhim vosita sanaladi. Azon orqali musulmonlar Allohning ibodatiga jamlanishadi hamda ushbu nido bilan , uning roziligiga erishiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “kifoya” kitobi.

2. Yorqinjon Fozil “Azon odoblari va axkomlari”

WORDLY KNOWLEDGE